

**ISROILOV BEKTOSH  
ERKINOVICH**



Candidate of Philosophy,  
Associate Professor

Researcher at the Samarkand  
State Institute of Foreign  
Languages

*Published under peer review:*  
*Doctor of Science in Philosophy,*  
*Professor*  
*G'aybullayev Otabek*  
*Muxammadiyevich*

**THE DEVELOPMENT OF INHERITANCE TRADITIONS IN  
SOCIETY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

**РАЗВИТИЕ ТРАДИЦИЙ НАСЛЕДОВАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ В  
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**JAMIYATDA GLOBALLASHUV SHAROITIDA VORISIYLIK  
AN'ANALARINING RIVOJLANISHI**

**Annotation:** This article reflects the growing need for heritage traditions in the process of globalization as a result of information technologies and economic integration. Because this situation threatens to change the boundaries of national culture and the full expression of traditional values. It is based on the fact that national traditions serve not only as historical experience, but also as a key element of cultural identity. Therefore, preserving traditions, passing them on to the younger generation and adapting them to modern conditions is an urgent task. The main advantage of the traditional approach is the roots of national history, their expression in personal and collective experience. However, in the context of globalization, this process is facing many technological and cultural pressures. As a result, there is a need to develop new strategies to preserve and strengthen national traditions. Solutions aimed at creating effective mechanisms for preserving this national heritage are expressed in heritage. Heritage is recognized in modern culture as the main means of achieving new cultural paradigms through innovative approaches to the formation of creative thinking. Through this process, new cultural and social solutions emerge based on creative thinking and innovative ideas. However, this trend can in some cases lead to the weakening of traditional values. Because the digital space and global information flow weaken the identity of local culture. Therefore, the article analyzes the possibilities and limitations of innovative approaches in the formation of creative thinking.

**Key words:** society, values, heritage, customs, traditions, globalization, information, cultural system, lifestyle.

**Аннотация.** В статье отражена растущая потребность в наследовании традиций в результате развития информационных технологий и экономической интеграции в процессе глобализации. Потому что такая ситуация ставит под угрозу трансформацию границ национальной культуры и полноценное выражение традиционных ценностей. Он основан на том, что национальные традиции выступают не только как исторический опыт, но и как важнейший элемент культурной идентичности. Поэтому сохранение традиций, передача их молодому поколению и адаптация их к современным условиям является актуальной задачей. Главное преимущество традиционного подхода заключается в том, что он укоренен в национальной истории, выраженной через личный и коллективный опыт. Однако в условиях глобализации этот процесс сталкивается со множеством технологических и культурных проблем. В связи с этим возникает необходимость разработки новых стратегий сохранения и укрепления национальных традиций. Последовательно высказываются решения, направленные на создание эффективных механизмов сохранения этого национального наследия. Наследование признано ключевым средством достижения новых культурных парадигм посредством формирования творческого мышления в современной культуре посредством инновационных подходов. В ходе этого процесса возникают новые культурные и социальные решения, основанные на творческом мышлении и инновационных идеях. Однако в некоторых случаях эта тенденция может привести к ослаблению традиционных ценностей. Потому что цифровое пространство и глобальный поток информации

размывают уникальность местной культуры. Поэтому в статье анализируются возможности и ограничения инновационных подходов в формировании творческого мышления.

**Ключовые слова:** общество, ценности, наследие, обычаи, традиции, глобализация, информация, культурная система, образ жизни.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari va iqtisodiy integratsiya natijasida vorisiylik an'analarga ehtiyoj kuchayib borayotganligi aks etgan. Chunki bu holat milliy madaniyat chegaralarining o'zgarishiga va an'anaviy qadriyatlarining to'liq ifodalanishiga xavf solmoqda. Milliy an'analar nafaqat tarixiy tajriba, balki madaniy identitetning asosiy unsuri sifatida ham xizmat qilishi asoslangan. Shu sababli, an'analarni saqlab qolish, ularni yosh avlodga yetkazish va zamonaviy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. An'anaviy yondashuvning asosiy afzalligi – milliy tarixning ildizlari, shaxsiy va jamoaviy tajriba bilan ifodalanishi hisoblanadi. Biroq, globallashuv sharoitida bu jarayon ko'plab texnologik va madaniy bosimlarga duch kelmoqda. Natijada, milliy an'analarni asrash va mustahkamlash uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Bu milliy merosni saqlashning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan yechimlar vorisiylikda ifodalangan. Vorisiylik zamonaviy madaniyatda kreativ tafakkurni shakllantirish innovatsion yondashuvlar yordamida yangi madaniy paradigmalarga erishishning asosiy vositasi sifatida e'tirof etiladi. Shu jarayon orqali, kreativ tafakkur va innovatsion g'oyalar asosida yangi madaniy va ijtimoiy yechimlar paydo bo'ladi. Biroq, bu tendensiya ba'zi hollarda an'anaviy qadriyatlarining susayishiga olib kelishi mumkin. Chunki raqamli makon va global axborot oqimi mahalliy madaniyatning o'ziga xosligini susaytiradi. Shu sababli, maqolada innovatsion yondashuvlarning kreativ tafakkurni shakllantirishdagi imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, qadriyatlar, vorisiylik, urf-odat, an'analar, globallashuv, axborot, madaniy tizim, turmush tarzi.

---

### **KIRISH (INTRODUCTION)**

Vaqt o'tgani sayin insoniyat hayot sur'atlari rivojlanib bormoqda. Ilm-fan va ishlab chiqarish sohasidagi rivojlanishlar xalqaro integratsiyaga sabab bo'lmoqda. Rivojlanishdan ortda qolishni istamagan har bir xalq globallashuv jarayoniga qo'shilmoqda. Globallashuv bu dunyo xalqlarining barcha sohalardagi integratsiyasi hosilasidir. Globallashuvning iqtisodiy va xizmat ko'rsatish sohasida imkoniyatlari hamda ijobiy jihatlari beqiyos. Globallashuv atamasi nafaqat iqtisodiy integratsiya, balki madaniy almashinuv, axloqiy qadriyatlarining sintezi va insoniyatning yangi bilim va tajriba maydonini yaratishi bilan chambarchas bog'liqdir. Globallashuv oldindan mavjud bo'lsa -da, so'nggi ikki asr mobaynida texnologik inqiloblarning natijasida yangi darajada intensivlashdi. Dunyo bo'ylab insoniyat o'rtasidagi aloqa, savdo, madaniy va ilmiy almashinuvning mustahkamlanishi, hududiy chegaralarni deyarli yo'qotishga olib keldi. Biz endilikda biror ma'lumotni izlab vaqtni isrof qilmaymiz. Yaratilgan yangilik butun insoniyatga tarqalishi uvhun bir necha yillar o'tmaydi. Rivojlanish jarayonlari teng kechadi. Bu o'rinda iqtisodiy hamkorlik ham juda muhim qismidir. Yangi hamkorlar topish, mahsulotlar aylanmasi internet orqali kechmoqda. Tan olish kerakki, buning ijobiy tomonlari juda ko'p. Taraqqiyot davomida biror bir xalq globallashuv jarayonidan chetga chiqib qolishi mumkin emas. Dunyoda boshqalar erishgan yangiliklardan foydalangan holda butun insoniyat qulay hayot kechirishga odatlanib bormoqda. Turli targ'ibot materiallariga berilib, ularga taqlid qilish holatlari uchramoqda. Bu jarayonni to'xtatib turish umuman inkonsiz bo'lib qoldi.

Bugun o'z moddiy manfaatlarini ko'zlagan bir qancha guruhlar yaxlit dunyoning shakllanishi, yagona yirik davlatning qaror topishi, yagona jahon madaniyatiga ega xalqaro hamjamiyatning tarkib topishi jarayoniga harakat qilmoqdalar. Ularning maqsadi alohidalik ba rang-baranglikni yo'qotish. Barcha uchun umumiy tilning qaror topishi o'z g'oyalarini oson va tezroq yetkazish imkonini tug'diradi. Yagona madaniyat milliy ongni so'ndiradi. Madaniy belgilarni tarqatuvchilar nimani xohlashsa dunyo aholisi shuni moda deb ergashib ketaveradilar. Bu jarayon markazda turganlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdosini rivojlantiradi. Ular qariyb o'z maqsadlariga erishdilar. Biror mashhur shaxs tomonidan reklama qilingan bachkana predmetni hamma sotib olishga harakat qilayotganligi buning dalilidir.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)**

Vorisiylik asosida madaniy merosni saqlab qolinishi va keyingi avlodlarga uzatilish zaruriyati barcha davrlarda olimlar hamda ijtimoiy faollarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy merosni saqlab qolish, innovatsion yondashuvlar asosida madaniy boyliklarni qayta talqin qilish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda urf-odatlarining ahamiyati belgilangan. Insoniyat sivilizatsiyalarining asosi va jamiyatlar barqarorligida vorisiylik an'anasi muhim omil ekanligi tadqiqot yo'nalishi dolzarbligini yanada oshirdi. So'nggi asrlarda ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Xorijlik olimlar J.Delyoz, A.Makintayr, E.Kassirer [1] R.Merton, A.Sen-Simon, Z.Bauman, A.Giddens, S.Xantington, D.Dyui, P.Rikyoy, J.Derrida, M.Fuko, M.Veber, E.Dyukgeym, Y.Xayzingalar vorisiylik ijtimoiy institutlar orqali qadriyatlarining uzatilishi va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini tahlil qiladilar.

Ikkinchi guruh. MDHda vorisiylikning oilaviy, madaniy va huquqiy an'analar doirasida rivojlanib, milliy o'zlikni saqlab qolish, iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar sharoitida yangi ijtimoiy institutlar hamda zamonaviy modellarga moslashuvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan O.V.Rojensova, T.II.Mopapy, E.Sh.Bestayeva, V.A.Samkova, V.K.Kiryuchkov, V.A.Fedotov, N.V.Sergeyeva, N.P.Kostina, O.V.Kashirina, M.S.Abdullox [2], S.V.Barishnikov, V.V.Averyanovlarning fundamental-amaliy g'oyalari muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi guruh. O'zbekistonda milliy an'analar xususida falsafa, pedagogika, adabiyotshunoslik va tarix fanlari sohasida R.S.Ataxonov [3], M.Kaxxarova, S.M.Matkarimova, T.I.Sultanov, N.Dilmuradova, N.N.Narziyev, A.S.Ismaylov, U.Qosimov, G.O'.Ahmedova, U.M.Abdalov, B.R.Xalmuratov, M.B.Utebayev, I.T.Baltayeva, R.T.Xakimov, G.R.Bekimbetova, Z.A.Rasulova [4], M.M.Yuldasheva, U.Qosimov, Z.N.Ortiqovalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, o'zbek xalq bayramlarining vorisiylik asosida milliy qadriyatlarni an'anaviy davom etishi ijtimoiy munosabatlarda etnik identlikni saqlab kelayotganligi U.Qoraboyev tadqiqotlarida aks etgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)**

Globalashuv atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning 1983-yilda "Garvard biznes rev'yu" jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan bo'lib, mazkur tushunchaning genezisiga e'tibor qaratsak u fanlar doirasida va muloqatda, ilmiy tadqiqolarda turlicha qarashlarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'atida: "Globalashuv (globalizatsiya) – lotincha "global" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni "dumaloqlashuv", "kurralashuv" deb tarjima qilish mumkin", [5] – deb tushuntiriladi. Agarda bugungi kunda jamiyatda sohalararo integratsiyaning jadallashuvi va har qanday yangilik, ixtiro hamda axborotlarni bir zumda

yer sharining xohlagan mintaqasiga tarqalib go'yoki bir butun shardek o'rab olayotganligini his etsak, yuqorida globallashuvga berilgan ta'rifning naqadar haqiqatga yaqin ekanligini anglash mumkin.

Darhaqiqat, globallashuv tushunchasiga berilayotgan ta'riflarning ko'pligi bu fenomenning keng ma'noga ega falsafiy kategoriyalardan biri ekanligidan dalolatdir. Bu borada taniqli olim, faylasuf Sadulla Otamuratov: "Jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda "Globallashuv" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilmoqda va unga turli qarashlar va munosabatlarni bildirish davom etib kelmoqda. Lekin uning yer kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha sohalarining "yagonaligini" ta'minlash jarayoni, omili sifatida qarashi umumiy qarashlardan ustuvor bo'lib kelmoqda" [6], - deb ta'kidlab o'tgan. Muallif dunyo faylasuf olimlari tomonidan "glaballashuv"ga bir qancha ta'riflarda tafavvutlar mavjud bo'lsa-da, bunday ta'riflarning ko'pchiligida yer kurrasining bir butunligini ifodalash va barcha sohalarining "yagonaligini" ta'minlash jarayoni sifatidagi qarashlari globallashuvning mazmun mohiyatini kengroq ochib beradi [7]. Modomiki, biz ijtimoiy hayotning barcha sohalarida rivojlanish jadal suratlarida tezlashib borayotganligini inobatga olsak, ushbu ta'rifning naqadar to'g'ri ekanligiga guvohi bo'lamiz.

Falsafiy nuqtai-nazardan globallashuv insoniyatning mavjudlik va bilish tizimlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bu jarayon – insoniyat tarixidagi ontologik transformatsiya sifatida qaralishi mumkin. Bir tomondan, globallashuv butun insoniyatni yagona bir jamoaga aylantirayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, u milliy va mintaqaviy madaniy an'analar o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni keltirib chiqaradi. Eksistensial nuqtai nazardan qaraganda, globallashuv insonning o'zini anglash jarayonida yangi imkoniyatlar bilan birga turli xavf-xatarlarni, shuningdek, ijtimoiy erkinlikni so'roq ostida qoldirmoqda.

### **TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

Globallashuv turli madaniy, ilmiy va texnologik bilimlarning bir-biri bilan almashinuvi orqali yangi bilish strukturalarining shakllanishini ifodalaydi. Bu jarayonda qadriyatlar va bilimlar, ularning yaratilishida tarixiy tajribalar hamda amaliy eksperimentlar o'rtasida murakkab sintez sodir bo'ladi. Shu tariqa, globallashuv insoniyatning bilim doirasini kengaytirib, yangi nazariy modellar va metodologik yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Globallashuvning ijobiy tomoni – texnologik va ilmiy rivojlanishning tezlashuvi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar sohasidagi hamkorlik natijasida yangi innovatsiyalar yuzaga chiqadi. Bu esa, insoniyatning turli sohalarida ilg'or tajribalarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, global ilmiy hamkorlik milliy darajada mavjud bo'lgan bilimlarni boyitib, yangi g'oyalarni yaratishda katalizator vazifasini bajaradi.

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri – madaniy almashinuv va turli xalqlarning o'zaro tajribalarini birlashtirishdir. Bu jarayon natijasida madaniy boyliklar, ya'ni san'at, adabiyot va tarixiy an'analar boyib boradi. Yangicha estetik va axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Global munosabatlar milliy madaniyatlarni mustahkamlash, o'ziga xoslikni saqlab qolish va shu bilan birga g'oyalarni qabul qilish imkonini yaratadi.

Globallashuv iqtisodiy tizimlarni birlashtirib, savdo va investitsiyalar orqali davlatlar o'rtasida moliyaviy hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu holat iqtisodiy o'sish, ish o'rinlarining yaratilishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Xalqaro savdo va investitsiyalar oqimi mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon innovatsion yechimlar va texnologiyalarni tatbiq etishda katalizator rolini bajaradi. "Iqtisodiy globallashuv milliy iqtisodiyotlarning tashqi savdo, transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga

oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, qisqa muddatli kapital oqimi, ishchi kuchi va umuman aholi harakati hamda xalqaro texnologiyalar almashinuvi orqali jahon tizimiga integratsiyalashuvini anglatadi” [8].

Globallashuvning ijobiy tomonlari juda ko‘p. Ammo shu bilan birga salbiy jihatlari ham namoyon bo‘lmoqda. Globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri – madaniy gomogenizatsiya jarayonidir. Global madaniy tizimlarning bir xil modellar asosida rivojlanishi ba‘zan mahalliy an‘ana va o‘ziga xosliklarning yo‘qolishiga olib keladi. Bu esa, madaniy diversifikatsiyaning kamayishi va shaxsiy o‘ziga xosliklarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, insonning o‘zligini anglashida va o‘z madaniy ildizlarini saqlab qolishdagi asosiy talablardan biri – turli madaniy elementlarning moslashuvi va sintezi. Ammo haddan tashqari umumiyashtirish madaniy xilma-xillikni susaytiradi. Globallashuv milliy madaniyatlarning shakllanishiga va rivojlanishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Bu umumiy me‘yor va standartlarni belgilaydi. Albatta milliy madaniyatlarni global madaniyat bilan birlashtiradi. Ammo bu bir qator salbiy ta‘silarga ham uchrashi mumkin. Madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro ta‘sirning kuchayishi milliy an‘analar va urf-odatlarini asossiz ravishda global normativlarga moslashtirish xavfini tug‘diradi. Milliy madaniyatlar o‘zining ajralib turadigan xususiyatlarini yo‘qotishi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va global axborot vositalari yordamida tezda tarqaladigan umumiy qiymatlar natijasida ular o‘zligini yo‘qotish xavfini sezadi. Madaniyatdagi rivojlanish jarayonlari bir tomondan, etnos ichidagi elatlar, hududlar, qabillalarning umumxalq madaniyatini; ikkinchi tomondan esa, ularning o‘z submadaniyatini yaratishini ifoda etadi. Masalan, o‘zbek madaniyati bir tomondan, barcha viloyatlarda yashovchi aholining, elatlarning madaniyatlarini o‘z ichiga oladi (integratsiya), ikkinchi tomondan, ularga o‘ziga xos bo‘lgan submadaniyatlar yaratishni davom ettirishga (differentsiya) imkon beradi. Shu tarzda, madaniyatda umumiylik va rang-baranglik, monomadaniyat va polistilistik madaniyat uyg‘un, bir-biriga ta‘sir etib keladi. Madaniy meros ushbu integratsiya va differentsiya jarayonlarini o‘zida ifoda etadi va an‘anaviylik hamda zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ta‘minlaydi.

Demak madaniy integratsiya turli xalqlarning umumiy qadriyatlarini shakllantiradi. Ammo bu jarayonda milliy o‘zlik yo‘qolib ketish xavfi ham mavjud. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini saqlab qolish orqali global jarayonlarga moslashishi lozim. Bu jarayonda mahalliy an‘analar yangi shakl va mazmunga ega bo‘ladi. Ba‘zi xalqlar o‘z madaniyatini global qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi gibril madaniy model yaratadi. Bunday uyg‘unlashuv milliy o‘zlikni mustahkamlashi ham, zaiflashtirishi ham mumkin.

Globallashuv davrida vorisiylik – milliy madaniyatni saqlashning asosiy mexanizmi. Agar bu vaqtda vorisiylik tamoyili zaiflashsa, madaniy identifikatsiya yo‘qolib, xalqning tarixiy xotirasi susayishi mumkin. Vorisiylik faqat an‘analarni takrorlash emas. U tarixiy ongni uzluksiz rivojlantirish jarayonidir. Har bir avlod oldingi tajribalarni o‘ziga xos tarzda qayta talqin qiladi. Natijada, milliy identlik ham doimiy o‘zgarish va moslashuv jarayonida bo‘ladi. Globallashuv bu jarayonga yangi omillar qo‘shadi. Ba‘zan esa ularning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki globallashuv davri vorisiylik an‘analariga quyidagicha o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin:

1. Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining muqarrar bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu madaniy chegaralarni yo‘q qilib, umumjahon ahamiyatiga ega bo‘lgan urf-odatlar va turmush tarzini shakllantirishga intiladi. Ushbu jarayonda eng katta tahdid milliy o‘ziga xoslikning zaiflashishidir. G‘arb madaniyati va ommaviy madaniyatning ustun kelishi natijasida ko‘plab jamiyatlarda o‘z an‘anaviy qadriyatlari va urf-odatlarini saqlab qolish masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. “Ommaviy madaniyat ixtisoslashgan (masalan, professional tayyorgarlik ko‘rgan) ongga

emas, balki oddiy, reflekslanmagan, anglangan narsa notanqidiy o'zlashtirilgan sxemalarga muvofiq shaklan o'zgaradigan ongga murojaat etishi bilan elitar madaniyatdan farq qiladi. Ommaviy madaniyat asarlarini ularning estetik qiymati nuqtai-nazaridan, an'anaviy san'at singari, durdona asarlarga emas, balki o'rtamiyona (muhimi, pul keltiradigan) asarlarga yo'naltirilgan madaniyat sifatida baholash odat tusiga kirgan" [9].

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, milliy o'ziga xoslik har qanday jamiyatning tarixiy tajribasi va mafkuraviy asoslarining yig'indisidir. Bu tushuncha jamiyatning o'zligini anglashi, o'z qadriyatlarini boshqa madaniyatlardan ajratib turishi bilan bog'liq. Ammo globallashuv natijasida bu jihatlar buzilmoqda. G'arb madaniyati innovatsiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali dominant mavqega ega bo'ldi. Endilikda boshqa jamiyatlarning o'ziga xos madaniy ko'rinishlarini ikkinchi darajali deb baholamoqdalar.

Ommaviy madaniyatning ta'siri inson ongiga yashirin tarzda kirib keladi. Kino, musiqa, moda, oziq-ovqat sanoati va boshqa globallashgan elementlar mahalliy madaniyatni transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh avlod ommaviy madaniyat vositalari orqali yangi, global standartlarni qabul qiladi va natijada o'z milliy qadriyatlariga nisbatan befarq bo'lib boradi. Bu jarayon nemis faylasufi Osvald Shpengler tomonidan ilgari surilgan "madaniyatning yemirilishi" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Shpenglerga ko'ra, madaniyatlar tabiiy rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, ma'lum davr o'tgach, ular yevropalashish yoki boshqa global kuchlarning ta'siriga tushib, asl mohiyatini yo'qotadi [10].

Milliy o'ziga xoslikning zaiflashishi, bir tomondan, ijtimoiy me'yorlarning o'zgarishiga olib keladi. Milliy mentalitetni shakllantiruvchi asosiy omillar – urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, oila instituti va tarixiy xotira ommaviy madaniyat belgilari bilan to'qnashmoqda. Bu esa mazkur Ijtimoiy institutlarning zaiflashishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ayni paytda bu jarayon ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan xalqaro integratsiyani kuchaytirib, insoniyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Ikkinchidan mahalliy madaniyatlarni standartlashgan global modelga moslashtirib, ularning individualligini yo'q qiladi.

Demak, milliy o'ziga xoslikning zaiflashishi globallashuvning muqarrar natijalaridan biri. Bu jarayonda madaniy diversifikatsiyani saqlab qolish muhim masaladir. Milliy madaniyatlarning global maydonda o'z mustaqilligini yo'qotmasligi uchun ta'lim, madaniyat siyosati va axborot vositalari milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qilishi lozim. Faqat shu yo'l bilangina jamiyatlar o'z tarixiy meroslarini saqlab, global dunyoda o'ziga xosligini yo'qotmagan holda yashay oladi.

2. Globallashuv jarayonida madaniy assimilyatsiya eng katta tahdidlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Assimilyatsiya – bu kuchli madaniyatlarning zaifroq yoki kichik madaniyatlarni o'z ichiga singdirishi, natijada mahalliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar asta-sekin yo'qolib borishidir. Ushbu jarayon insoniyat tarixida ko'p bora kuzatilgan bo'lib, ayniqsa, madaniy imperializm va global standartizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda jadallashmoqda.

Assimilyatsiyaning eng xavfli jihati shundaki, u sekin va deyarli sezilmas tarzda amalga oshadi. Katta madaniyatlar iqtisodiy, siyosiy va texnologik ustunligi orqali kichik madaniyatlarni o'z ta'sir doirasiga tortadi. Masalan, ommaviy axborot vositalari va global san'at industriyasi orqali yosh avlod ongiga begona qadriyatlar singdiriladi. Natijada, mahalliy madaniyat nafaqat o'zining tashqi ko'rinishini, balki ichki mohiyatini ham yo'qotib boradi. Bu jarayon fransuz faylasufi Jan Bodriyar nazariyalarida "simulyakrlashtirish" deb atalgan fenomen bilan izohlanishi mumkin. Uning fikricha, ommaviy madaniyat real an'analar va qadriyatlarni almashtirib, sun'iy, tijoratlashtirilgan madaniyatni yaratadi. Shu sababli, mahalliy urf-odatlar o'zining tabiiy rivojlanishidan ajralib, standartlashtirilgan global modelga moslashtiriladi [11].

Madaniy assimilyatsiya jarayoni milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa kichik etnik guruhlar va kam sonli xalqlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Tarixiy tajribaga nazar tashlasak, ko'plab millatlar assimilyatsiya natijasida o'ziga xosligidan mahrum bo'lganini ko'rish mumkin. Masalan, Amerika tubjoy xalqlari yoki ayrim Yevropa xalqlari global madaniyatning ta'sirida o'zining an'anaviy qadriyatlarini yo'qotib bormoqda. "Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, milliy madaniyatlar assimilyatsiyani hech qachon yoqtirmagan, balki ular ixtiyoriy-ijodiy integratsiya tarafdori bo'lganlar. Shuning uchun ham etnomadaniyatlardagi differensial xususiyatlar hamon o'z ta'sirini o'tkazib keladi [12]. Biroq asrlar sinovidan o'tib, tarixiy-madaniy paradigmaga aylangan xalq ijodi va san'atida umuminsoniy estetik idealga intilish mavjuddir. Bu intilish xalqlar, madaniyatlar o'rtasida qadimdan davom etib kelayotgan aloqalar, integratsiyalar ta'sirida shakllanganki, uni eng despotik tuzum ham to'xtatolmagan. Mazkur umumiy ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonuni milliy madaniyatlarni umuminsoniy idealga talpinishga undaydi. Milliy madaniyatda umuminsoniy idealning qaror topishi ushbu talpinishning mahsulidir" [13].

Bunday xavflardan qochish uchun milliy madaniyatlarni mustahkamlash va ularni global maydonda tanitish zarur. Bu esa ikki tomonlama yondashuvni talab qiladi: bir tomondan, madaniy o'ziga xoslikni himoya qilish va mahalliy qadriyatlarni targ'ib qilish. Ikkinchi tomondan, global madaniyat bilan faol muloqot qilib, milliy an'analarni zamonaviy kontekstda qayta talqin etish. Shundagina, madaniy assimilyatsiya jarayoni mahalliy madaniyatlar uchun butunlay yo'qotish emas, balki rivojlanish omiliga aylanishi mumkin.

3. Globallashuv jarayonida tillarning yo'qolib borish xavfi oshmoqda. Yuqori madaniy va iqtisodiy kuchga ega bo'lgan xalqlarning tili global muloqot vositasi sifatida ustunlikka ega bo'lmoqda. Bunda kichik va hatto ayrim milliy tillar asta-sekin iste'moldan chiqib bormoqda. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bugungi kunda ingliz, xitoy va ispan tillari xalqaro muloqotning asosiy vositalariga aylangan. Bunday sharoitda kichik tillarning yo'qolish xavfi ortib bormoqda. Biroq, tahdid faqat kichik tillarga emas, balki yirik milliy tillarga ham taalluqlidir. Chunki global tillarning ta'siri milliy tillarga xorijiy so'zlar oqimi orqali singib borib, ularning asl shakli buzilishiga olib kelmoqda. Natijada, milliy tillar o'zining an'anaviy lug'at boyligini yo'qotib, xorijiy standartlarga moslashib boradi. Bu jarayon madaniy assimilyatsiyaning xavfli ko'rinishlaridan biridir.

Til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki jamiyatning dunyoqarashi, tafakkur tizimi va madaniyati aks etgan murakkab fenomen. Har bir til o'zida ma'lum bir xalqning tarixiy xotirasi, falsafasi va mentalitetini saqlaydi. Shu bois, til yo'qolishi bilan birga millatning vorisiylik an'analari ham yo'qolishi mumkin. Masalan, filologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda tasvirlaydi: muayyan xalq tili qanchalik boy va ifodali bo'lsa, uning madaniy tafakkuri ham shunchalik chuqur bo'ladi.

Tilni saqlash faqat lingvistik masala emas, balki ijtimoiy-falsafiy muammo hamdir. U milliy o'zlik, tarixiy meros va madaniy mustaqillik bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, tilni yo'qotish nafaqat muloqot vositasining yo'qolishi, balki butun millatning madaniy genofondi zaiflashishi bilan barobar bo'ladi. Nemis faylasufi Martin Xaydegger fikricha, "til – bu borliq uyi", ya'ni inson o'z dunyoqarashini til orqali shakllantiradi va ifodalaydi. Agar millat o'z tilini yo'qotsa, u o'z borlig'ining ma'naviy poydevorini ham yo'qotishi mumkin [14].

Tilni saqlash va rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlari, ilmiy-tadqiqot loyihalari hamda ta'lim tizimida milliy tilga asoslangan innovatsion yondashuvlar zarur. Zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy tilni global maydonda targ'ib qilish, uni yangi raqamli muhitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar til faqat an'anaviy shaklda saqlanib qolsa, u o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Shu sababli, milliy tillarning rivoji zamonaviy ilm-fan, texnologiya va san'at bilan uyg'unlashishi lozim.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida milliy tillarning yo'qolishi yoki buzilishi ijtimoiy tahdiddir. Buni oldini olish uchun davlat siyosati, ilmiy-fan va jamoatchilik birgalikda harakat qilishi zarur. Aks holda, milliy til o'z tabiiy rivojlanish yo'lidan og'ib, global standartlar ichida erib ketish xavfi ostida qoladi.

4. Globallashuvning kuchayishi bilan jamiyatlarning ijtimoiy ongi axborot oqimlarining bosimi ostida tobora o'zgarib bormoqda. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari – internet, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar global miqyosda yagona informatsion makonni shakllantirayotgan bir paytda, milliy mafkura va tarixiy xotiraning o'z o'rnida qolishi tobora qiyinlashmoqda. Global narrativlar mahalliy tarixiy haqiqatlarni siqib chiqarishi yoki ularning mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu jarayon millatning o'ziga xos tarixiy xotirasini zaiflashtiradi hamda milliy o'zlikni yo'qotish xavfini tug'diradi.

Ijtimoiy ong – bu muayyan jamiyat a'zolarining tarixiy tajriba va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan dunyoqarashidir. U millatning o'zligini anglash, kelajak strategiyasini belgilashda muhim o'rin tutadi. Tarixiy xotira esa ushbu ongning ajralmas qismi bo'lib, avlodlar davomida shakllangan bilim va qadriyatlarni o'zida saqlaydi. “Tarixiy xotiraga vorisiylik xosdir. Ma'lumki, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy meros avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi. Uni saqlab, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasini bajarishda tarixiy xotiraning roli muhimdir. Shunga ko'ra, tadqiqotchi J.T.Toshenko «...tarixiy xotira o'tmish haqidagi axborotni bugungi kun va kelajak bilan bog'liq holdagi muhim xususiyatini aks ettiradi. U o'z mohiyatiga ko'ra xalq, davlat, mamlakatning o'tmish tajribasining to'planishi, saqlanishi va qayta tiklanish jarayonining uni kishilar faoliyatida qo'llash ehtimolini uning ta'sirini ijtimoiy ong sohasiga qaytarishning aks etishidir» – degan fikrni bildiradi” [15]. Biroq, global axborot oqimlari bu tarixiy xotiraning shakllanishiga bevosita ta'sir qilib, uni xalqaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga moslashtirib o'zgartirishga harakat qilmoqda.

Bugungi dunyoda informatsion resurslar strategik qurolga aylanib bormoqda. Ayrim geosiyosiy kuchlar turli media vositalari orqali tarixni qayta talqin qilishmoqda. Bu jamiyatlarning tarixiy xotirasini o'zgartirish va milliy mafkurani zaiflashtirishga qaratilgan urinishdir. Masalan, ayrim ommaviy axborot vositalari milliy qahramonlarni global ideologiyaga mos holda tasvirlab, ularning tarixiy rolini yo'qotirishga, yo esa ularni butunlay inkor etishga intiladi. Bunday manipulyatsiyalar natijasida yosh avlodlar o'z tarixiy ildizlaridan uzilib, yangi, sun'iy yaratilgan narrativlarga ishonib qolishi mumkin.

Ijtimoiy ong shakllanishidagi bosim faqat ommaviy axborot vositalari orqali emas, balki ta'lim tizimi va madaniy muhit orqali ham amalga oshiriladi. Xalqaro ta'lim dasturlari, chet ellik donorlar tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar yoki madaniy tadbirlar orqali jamiyatga yangi mafkuraviy g'oyalar singdiriladi. Natijada, milliy tarixga oid tasavvurlar asta-sekin o'zgarib, yangi avlod butunlay boshqa qadriyatlarga asoslangan ong bilan ulg'ayadi.

Bunday sharoitda milliy tarixiy xotirani saqlash va mustahkamlash davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Ijtimoiy ong shakllanishida muvozanatni ta'minlash uchun quyidagi choralar zarur:



Milliy ommaviy axborot vositalarini mustahkamlash – mustaqil axborot maydonini yaratish va rivojlantirish orqali global informatsion bosimni yumshatish mumkin.

Ta'lim tizimini isloh qilish – tarixiy haqiqatlarni saqlash va avlodlarga yetkazish uchun milliy tarix va madaniyat asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Axborot savodxonligini oshirish – fuqarolarga turli media manbalarini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning ijtimoiy ongiga bo'lgan bosimni kamaytirish mumkin.

Shunday qilib, global axborot oqimlari ijtimoiy ong shakllanishiga bevosita ta'sir qilib, milliy tarixiy xotirani o'zgartirish yoki uning o'rnini boshqa narrativlar bilan to'ldirishga olib kelishi mumkin. Bunga qarshi turish uchun jamiyat o'z tarixiy merosini anglab yetishi, uni targ'ib qilish va himoya qilish bo'yicha aniq strategiyaga ega bo'lishi lozim. Aks holda, vorisiylik an'analari zaiflashib, global mafkuraviy oqimlarning ta'siriga tushin qolish xavfi mavjud.

5. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Bilim olish, madaniyatni o'rganish va tajriba almashish jarayonlari ham tobora raqamli formatga ko'chmoqda. Natijada, ming yillar davomida insoniyat madaniy va ma'naviy merosini saqlash hamda uzatishda muhim rol o'ynagan an'anaviy bilim uzatish usullari – og'zaki xalq ijodi, ustoz-shogird maktabi, diniy va oilaviy ta'lim – o'z dolzarbligini yo'qotish xavfi ostida qolmoqda.

Ilm-fan va hunarmandchilik sohalarida ustoz-shogird an'anasi asrlar davomida bilimni tizimli tarzda o'rgatish hamda tajribani avlodlarga yetkazishning asosiy shakli bo'lib kelgan. Bu usul nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga olgan. Biroq raqamli ta'lim vositalarining rivojlanishi bu an'anani zaiflashtirdi. Onlayn kurslar, sun'iy intellekt asosidagi o'qitish dasturlari hamda avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari individual murabbiylikni kamaytirib, insoniy omilning ahamiyatini pasaytirmoqda. Natijada, shaxsiy tajriba, muloqot va axloqiy meros uzatilishi cheklanib, bilimning faqat texnik jihatlari e'tiborga olinmoqda.

Raqamli va an'anaviy bilim uzatish usullari o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish uchun ularni uyg'unlashtirish zarur. Misol uchun, og'zaki xalq ijodini saqlab qolish uchun podkastlar va audio kitoblardan foydalanish, ustoz-shogird an'anasini mustahkamlash uchun onlayn mentorlik platformalarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, milliy madaniyatni raqamli maydonda faol targ'ib qilish orqali uning global madaniyatga qo'shilib ketmasligini ta'minlash lozim.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)**

Shunday qilib, raqamli va texnologik dominatsiya an'anaviy bilim uzatish mexanizmlarini zaiflashtirmoqda. Biroq bu jarayonga ongli yondashish orqali milliy madaniyat va bilim tizimining rivojlanishini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirish mumkin.

Globalashuv jarayoni dunyo bo'ylab iste'mol madaniyatining unifikatsiyalashishiga olib kelmoqda. Mahalliy hunarmandchilik, milliy oziq-ovqat mahsulotlari va san'at turlari global korporatsiyalar tomonidan taklif etilayotgan ommaviy standartlarga mos kelmaydigan va iqtisodiy jihatdan kamroq daromad keltiradigan sohalar sifatida chetga surilmoqda. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy oqibatlarga ham ega bo'lmoqda.

Mahalliy hunarmandchilik asrlar davomida xalqlarning turmush tarzini, estetik didini va milliy o'ziga xosligini aks ettirib kelgan. Biroq zamonaviy globalashuv sharoitida bu an'anaviy kasb-hunar turlari masshtabli va arzon sanoat mahsulotlari tomonidan siqib chiqarilmoqda [16]. Misol uchun, qo'lda yasalgan buyumlar, milliy kashtachilik va kulolchilik mahsulotlari arzon sintetik alternativalar bilan almashtirilmoqda. Bu esa nafaqat hunarmandlarning iqtisodiy imkoniyatlarini toraytiradi, balki mahalliy madaniy merosning amaliy qo'llanilish imkoniyatini ham cheklaydi.

Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va an'anaviy taomlar ham global oziq-ovqat industriyasining bosimi ostida yo'qolish xavfi ostida turibdi. Fastfud tarmoqlari, yirik global brendlar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar mahalliy oshxona madaniyatining o'ziga xos jihatlari susaytiradi. Natijada, organik va mahalliy mahsulotlar o'rni global standartlarga mos keluvchi, lekin mahalliy iqlim va milliy didga yot bo'lgan taomlar egallamoqda. Bu esa milliy gastronomik merosni boyitish o'rniga, uni cheklashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish sharoitida vorisiylik milliy o'zlikni saqlash, uni boyitish va zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishda hal qiluvchi omildir. Milliy qadriyatlarni himoya qilish va madaniy almashinuv jarayonida vorisiylik asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, globalizatsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlarini hisobga olgan holda, vorisiylikning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash zarur. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va madaniy boyliklarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Vorisiylik nafaqat madaniyatning uzluksizligini ta'minlaydi, balki jahon madaniyatida milliy madaniyatlar o'rnini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Кассирер Э. Натуралистическое и гуманистическое обоснование философии культуры // Постигание культуры: Концепции, дискуссии, диалоги: Ежегодник / Рос. ин-т культурологии и др. Вып.7. - 1998. ISBN 5-7196-0029-9
2. Абдуллох М.С. Особенности формирования культурной идентичности таджикского общества в условиях глобализации: состояние и перспективы: Дис. ...канд. филос. наук. - Душунбе, 2023. -174 с.
3. Атаханов Р.С. Фарғона водийси қорақалпоқларида анъанавий ва замонавий этноинтеграцион жараёнлар: Тар. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. – Термиз: АнМашИ, 2021. - 156 б.
4. Расулова З.А. Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси: Психо. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ТДПУ, 2018. - 263 б.
5. Мустақиллик изоҳли-оммабоп луғат. -Тошкент: Шарқ, 1998. –Б. 70.
6. Отамуратов С. Глобализация в мислат. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. –Б. 11.
7. Gaibullaev, O. (2023). Development processes of language and philosophical views in Central Asia. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 65, p. 10023). EDP Sciences.
8. Jagdish Bhagwati. In Defense of Globalization // Oxford University Press. 2004.
9. Фойибназаров Ш. Оммавий Маданият. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. 12-бет.
10. Шпенглер О. Закат Западного мира. -М: «Альфа-книга», 2014. -1085 с.
11. Печенкина О.А. Этика Симулякров Жана Бодрийяра (Анализ постмодернистской рецепции этического): Дис. ...канд. филос. наук. - Тула, 2006. -145 с.
12. Doniyorov, A., Polvonov, J., Jalolova, S., Sattorova, Z., Yakubova, M., Gaybullaev, O., ... & Abdurkarimov, A. (2024). DESIGNING INCLUSIVE CITIES–THE ROLE OF URBAN ARCHITECTURE IN ENHANCING ACCESSIBILITY FOR THE VISUALLY IMPAIRED. *Archives for Technical Sciences*, 2(31), 393-402
13. Нишонова, О. (2021). Маданий интеграция - умуминсонийликни ривожлантириш омили. Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития, 1(1), 362–364. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/stable\\_development/article/view/22125](https://inlibrary.uz/index.php/stable_development/article/view/22125)
14. Хайдеггер М. Гегелева «Феноменология духа» / М. Хайдеггер. - М.: Издательство «Владимир Даль», 2019. - 288 с. ISBN 978-5-93615-219-1
15. Ruziyev A.J. Milliy o'zlikni anglashda tarixiy xotira va ongning o'zaro uyg'unligi // Journal of integrated education and research. 2022. 1(7), ISSN: 2181-3558
16. ZAKHAROVA, A., LIZUNKOV, V., MOROZOVA, M., & GAYBULLAYEV, O. (2024). Model for assessing strategic development alternatives for the workforce advanced training system in a single-industry town, taking into account neurodidactic principles. *European journal of contemporary education Учпедумелу: Cherkas Global University Press*, 13(1), 292-304.